

ijtimoiy masalalar yuzasidan xabardor bo'lamiz. Yangiliklar va tahliliy maqolalar fuqarolarga siyosiy qarorlar, qonunchilik yangiliklari, iqtisodiy o'zgarishlar va ijtimoiy muammolar haqida ma'lumot beradi. Jurnalistlar jamiyatdagi muammolarni yoritishda va ularni hal qilishga yordam berishda faol ishtirok etadilar. Masalan, korruptsiya, ta'lim tizimidagi kamchiliklar yoki ekologik muammolarni yoritish orqali jurnalistlar bu masalalarga diqqatni jalb qilishga yordam beradi.

Jurnalist etikasi va mas'uliyat: Jurnalistikaning jamiyatdagi ahamiyatini to'liq tushunish uchun uning etik mas'uliyatini ham inobatga olish zarur. Jurnalistlar faqat axborotni tarqatibgina qolmay, balki jamiyatdagi axborotning haqqoniyligi, xolisligi va manbalarni to'g'ri tekshirishda mas'uldirlar. Ularning ishlari nafaqat axborot almashinuvi, balki ijtimoiy ongni shakllantirishga ham ta'sir qiladi. Jurnalistika etikasiga rioya qilish, asosan, haqiqatni izlash va manipulyatsiyalardan saqlanishni anglatadi. Shuningdek, jurnalistlar jamiyatni turli masalalar bo'yicha yangiliklar bilan ta'minlashda muhim rol o'ynaydilar, lekin bu yangiliklar jamiyatda adolatsizlik yoki salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak.

САВОБ ИШ

(кичик ҳикоя)

Дилнура Абдувахобова

*Андижон вилояти, Булоқбоши туманидаги 31-умумтаълим мактабининг
9-синф ўқувчиси*

Олим ўн икки ёшда. Уларнинг каттагина ҳовлиси тўла узумзор. Бобоси Озодбек ота узумларга ўзи қараб, парвариш қилади. Ҳар йили кеч кузда узумларни бозорга чиқаришади, даромади ҳам катта бўлади. Олим мактаб дарсларидан бўш вақтларида бобосига ёрдамлашиб, анча-мунча узум парваришлаш ҳадисини олган. Одатга кўра, кеч кузда совуқ урмаслиги учун ўралиб, кўмиладиган, эрта баҳордан сўкичокларга ёйиладиган узумларнинг ҳосилини ёзда кўраверинг! Вақтида хомтоғи олинади, суғорилади, кўшимча шохлари қирқилади. Узумларнинг Ризамат ота, шивирғони, даройи, кетмон сопи, келин бармоқ сингари аталадиган навлари бор. Буларни бозорда харидорлар бир зумда талашиб олишади, чунки ҳар бирининг мазаси ўзига хос, бозор суйди. Қишлоқда деярли барча ҳовлиларда узум етиштирилади. Ҳатто, кўчаларни ёзда узум ишкомлари безайди. Ток шунчалик кўп экиладики, энди қишлоқ миришкорлари узумларни қайроқи

қилиш мақсадида, уларни ерга кўммай қўйди. Ўтган йили қиш қаттиқ келиб, кўпчилик мевали дарахтларни совуқ урди. Шу қатори сўкичокларда қолдирилган узумлар ҳам қуриб қолди. Озодбек отанинг одати шундай: нима бўлган тақдирда ҳам, кўмилиши керак бўлган , совуққа чидамсиз мевали дарахтларни қоидага кўра, эринмай ўрайди, ерга кўмади, ҳосилдан ажраб қолишни истамайди, ахир булар ризқ-ку, дейди ота.Шунинг учун ҳам Олимжонларнинг узумлари ҳар йилгидек кўзни қувонтириб,эрта баҳордаёқ мўл ҳосил учун кўриниш берди. Ёз давомида қилинган парвариш, қаров билан узумлар пишди.Ишқомлар орасида олтиндек товланаётган узумларни кўрган ота бу сафар:

- Бу йил бозорга узум чиқармаймиз,-деди.

- Нимага, ота? Ахир, шунча узумни сақлай оламизми?-хайрон бўлиб сўради Акмал ака .

- Маҳаллага тарқатамиз, ахир бу йил кўпчиликнинг уйида узум бўлмади,- деди ота қарорини ўғлига билдириб...

Ўша ҳафтанинг якшанбасида Олимжон ўртоқларини бобосининг топшириғига кўра, ҳашарга. узумларни йиғиштиришга чақирди. Узумлар идишларга барабар тақсимланиб, хонадонларга тарқатилди. Албатта, Озодбек ота қиш ғамини ҳам унутмади. Оила аъзолари учун ҳам узумлар омборга жойланди.Энг асосийси, маҳалладагилар узумлардан тановвул қилиб, бобосининг ҳақиға дуо қилишди, энди улар ҳам хонадонларидаги узум парваришига эътиборли бўладиган бўлишди, Олимжон ўртоқлари билан бу хайрли ишга қўли текканидан жуда мамнун ҳолда, шундай саховатпеша бобоси борлигидан ғурурланиб қўйди.

KICHIK MUSAVVIR

(Hikoya)

Maktabimizda har shanba odatda, darslardan keyin turli mavzuda tanlovlar o'tkazilishi an'anaga aylangan. Shuning uchunmi, ko'pchilik o'quvchilar iste'dodi bilan bilimdonlik tanlovlarning viloyat, respublika bosqichlari ishtirokchisiga aylanadi.Ayniqsa, bizning 8-“A”sinfida qobiliyatli o'quvchilarning ko'pini tanlovlar kashf etdi.Sinfimizda “Chiroyli ovoz sohibi”, “Kim epchil?”, “Zukko kitobxon”tanlovlari g'oliblari bor. Bu haftaning shanbasida ham sinf rahbarimizning e'lon qilishicha, “Kichik musavvir” tanlovi o'tkazilar ekan

-Xo'sh, kim qatnashadi?-so'radi ustoz Muhabbat opa bizga yuzlanib.Sinfimizda darslardan yaxshi o'zlashtirolmay, doim ustozlardan dakki eshitib yuradigan Aziz ismli o'quvchi bor. Birdan tanlov nomini eshitib:

-Men, men qatnashaman,-desa bo‘ladimi. Hamma kulib yubordi. To‘g‘risi, undan buni kutmagandik.

-Sen –a? Yangilik-ku!-dedi Lazizbek masxaraomuz.

-Men ertaga chizgan rasmlarimni sizlarga albatta ko‘rsataman,-dedi Aziz hayajonlanib. Darhaqiqat, ertasiga u alohida qog‘ozga o‘ralgan papka ko‘tarib keldi. Unda turli xil rasmlar jamlanmasi bor edi.Biz yopirilib, stol ustiga yozib qo‘yilgan katta-kichik qog‘ozlardagi rasmlarni tomosha qila boshladik.

-Ajoyib...shularni o‘zing chizdingmi?-ishonqiramay so‘radik undan. Aziz esa indamay, sumkasidan rangli qalamlar, oppoq qog‘oz chiqardi-da, surat chiza boshladi.Archazor, ortda baland tog‘lar. Cho‘qqilarni o‘xshatib chizdi. Uni tanlovga qatnashmoqchiligini masxara qilganlar endi hayratlanib, uni kuzatardilar...Tanlov kuni Aziz chizgan suratlari bilan maktab tanlovida g‘olib bo‘ldi. Biz endi uni “Yosh musavvir” db atay boshladik U tanlovning keyingi bosqichiga tayyorlana boshladi.

INSONNING SHAXS SIFATIDA SHAKLLANISHI VA BU JARAYONDA MOTIVATSIYANING TUTGAN O‘RNI

Ergashova Dilfuza Uktam Qizi

Samarqand Davlat Chet Tillari Instituti Ingliz tili fakulteti Xorijiy til va

Adabiyoti

kafedrasining 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Insonning shaxs sifatida shakllanishi jarayoni murakkab va ko‘p qirralidir. Bu jarayonning asosiy omillaridan biri motivatsiyadir, chunki motivatsiya insonning faoliyatini, maqsadlarini va ijtimoiy munosabatlarini belgilovchi asosiy kuchdir. Motivatsiya insonning o‘z-o‘zini anglash, qobiliyatlarini rivojlantirish va mavjud imkoniyatlardan foydalanuvchi shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Umuman olganda, inson shaxs sifatida shakllanishidagi motivatsiya faqat harakatni emas, balki shaxsiy xarakter, moral qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlarni ham shakllantiradi. Ushbu maqolada motivatsiyaning shaxs ongidagi o‘rni, shuningdek, uning shakllanish jarayonidagi usullari va strategiyalari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Shaxs, murakkabliklar, motiv, motivatsiya, usullar, shakllanish, ijtimoiy, munosabatlar.*